



ARTICLE INFO

Received: 26th June 2024

Accepted: 29th June 2024

Online: 30th June 2024

KEYWORDS

Integrative approach,
educational methods,
interdisciplinary integration,
lexicology, series of consonants,
loanwords, didactic game.

CONNECT MOTHER LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Ahmedova Sarvinoz

Student of Karakalpak State University (Nukus, Uzbekistan)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901994>

ABSTRACT

In this article, a number of opinions are discussed and explained through examples regarding the integral connection of mother tongue lessons with the science of literature.

ПОДКЛЮЧИТЬ РОДНОЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРУ ОБУЧЕНИЕ

Ахмедова Сарвиноз

Студентка Каракалпакского государственного университета (Нукус, Узбекистан)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901994>

ARTICLE INFO

Received: 26th June 2024

Accepted: 29th June 2024

Online: 30th June 2024

KEYWORDS

Интегративный подход,
методы обучения,
межпредметная
интеграция, лексикология,
ряды согласных,
заимствованные слова,
дидактическая игра.

ABSTRACT

В данной статье обсуждается и поясняется на примерах ряд мнений относительно целостной связи уроков родного языка с литературоведением.

ONA TILI VA ADABIYOTNI BOG'LAB O'QITISH

Ahmedova Sarvinoz

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi (Nukus, O'zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901994>

ARTICLE INFO

Received: 26th June 2024

Accepted: 29th June 2024

Online: 30th June 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili darslarini adabiyot fani bilan uzviy bog'liqligi xususida bir qancha fikr mulohazalar yuritiladi va misollar orqali izohlanadi.

*Integrativ yondashuv, ta'lim
metodlari, fanlararo
integratsiya, leksikologiya,
qator undoshlar, olinma so'zlar,
didaktik o'yin.*

Keyingi yillarda ta'limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang qo'yildi.



Xususan, A.G'ulomov, H.Ne'matov, B.Ziyomuhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta'limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo'ldosheva kabi pedagoglarning ilmiy izlanishlaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovning "Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari" bo'yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega [1.254].

Ta'lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog'lab o'qitish yaxshi natija beradi. Masalan, ona tili darslarida berilgan "Leksikologiya" bo'limini o'rganishda, undagi bo'lim va mavzularni adabiyot faniga bog'lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so'z va maqollar, she'rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Quyidagi **O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"** hikoyasidan olingan parcha bo'lib, o'quvchilar parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilish orqali, har bir so'zning lug'aviy ma'nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi.

Ko'zgudagi yozuv

"Yaxshiyamki, odamzotning aybi o'ziga bilinmaydi. Bo'lmasa, dunyoda bittayam butun toshoyna qolmas edi..."

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida, mavzular hozirgi paytda ko'ryapmizki o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan hamda mavzu nomlarining o'zida fanlararo integratsiya holatlari yaqqol sezilib turadi. Ya'niki, oddiygina 7-sinf darsligidagi mavzularga qaraydigan bo'lsak, undagi har bir mavzular ma'lum bir fan bilan bog'liqlikni ifodalaydi.








Masalan:

“C vitamin” – ushbu mavzu batanika va biologiya fanlariga bog‘lab o‘rgatilsa bo‘ladi.

“Qutb yulduzi” - bu mavzu esa geografiya, astronomiya fanlariga mutloq bog‘liq.

“Fizika hayotni yengillashtiradi”, “Elektromobil” – bu mavzu esa tog‘ridan-tog‘ri fizika fani bilan bog‘liq.

“Boburnoma – memuar asar”, “Yozuvchi bo‘lish osonmi?”, “Mualliflik huquqi” kabi mavzular esa adabiyot fanni bilan bog‘liqlikni kasb etadi.

MUNDARIJA	
	5 Kirish
	9 Ijtimoiy tarmoqlar
	17 Zamonamiz qahramonlari
	25 Turon yo‘lbarsi
	34 C vitamini
	42 Qutb yulduzi
	49 Kurash – milliy sport turi
	57 Kelajak kasblari
	67 Veterinar
	76 Maqsadli xarajatlar
	83 Bobomning pensiyasi
	92 Fizika hayotni yengillashtiradi
	99 Elektromobil
	107 Tutilmay gapiraman
	115 Yozuvchi bo‘lish osonmi?
	122 Ochiq osmon ostidagi muzey
	131 Temiryo‘llar
	141 “Boburnoma” – memuar asar
	148 “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali
	158 Oliy Majlis
	166 Mualliflik huquqi

Shuningdek, ona tili va adabiyotni bog‘liqlikda o‘rgatishga “O‘yla, izla, top!” didaktik o‘yini juda ham mos keladi. Ya’ni bunda biz mavzuyimizga doir bo‘lgan matnlarni topishimiz kerak bo‘ladi. Bizni topadigan matnimiz maqol, matalal, hikmatli so‘zlar yoxud tarbiyaviy ahamiyati ko‘proq bo‘lgan matnlarni olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, topgan matnimiz orqali o‘quvchilarga bira to‘la tarbiya ham berib borish uchun qulay bo‘ladi, bundan tashqari o‘quvchilar matndan o‘zlariga kerakli xulosa chiqarib, ibrat oladilar.

Masalan: biz “Qator undoshlar” yoki “Olinma so‘zlar” kabi mavzularni o‘tayotgan bo‘lsak, quydagi maqollarni misol qilib olishimiz mumkin. Ya’niki, bunda o‘quvchilar birinchi bo‘lib, matnda keltirilgan nuqtalar o‘rniga harflarni moslab qo‘yib, jummalarni to‘g‘ri to‘ldiradilar va undan mavzuga doir so‘zlarni aniqlab, maqollarni izohlab tushuntirishlari kerak bo‘ladi.



1	
2	
3	

Bundan tashqari, o'quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o'z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o'qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o'tadi. Yangi mavzu bayonidan so'ng o'qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'lga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin:



1	<i>Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo'rsinib, bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo'yardi.</i> <i>- Ha, rozi bo'ldi Abdulla, rosa to 'polon bo'lardi.</i> <i>Men amakidan qo'rqaman. Ko'zi yomon.</i> <i>Gulchehra Dadavoy amakining ko'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib olaydi, o'xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi.</i> <i>(O'. Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin" asaridan)</i>
2	<i>Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon: uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha, poliz... lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'ru, hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tirmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizini sho'ra va g'unay bosib ketibdi.</i> <i>(Abdulla Qahhor. "Sinchalak")</i>
3	<i>Vatan, istiqlol, ma'naviyat... bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalashda purhikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarning birortasi yo'q bo'lsa, hayotning qayeridir kemtik bo'lib turaveradi.</i> <i>(Gazetadan)</i>
4	<i>2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850- sonli farmon</i> <i>O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-yanvardan boshlab markaziy telekanallarda "Tilga e'tibor", "Ona tilida so'zlashamiz", "Notiqlik mahorati", "Til millat ko'zgusi", "Kitob bilim manbai", "Bilimli yoshlar kelajak bunyodkori" kabi turkum ko'rsatuv va eshittirishlarni tashkil qilib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishini ta'minlasin.</i> <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayev</i>
5	<i>Yomg'ir suyuq tomchi holiday atmosferaga yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo'ladi. Yomg'ir bulutlardagi mayda suv zarralarining qo'shib yiriklashuvidan hosil bo'ladi. Yomg'ir ikki xildir: jala yomg'ir, shivalama yomg'ir. Jala yomg'ir to'p-to'p bulutlardan yog'adi, ko'p vaqt o'tmay to'xtaydi, tomchilari yirik bo'ladi.</i> <i>(Darslikdan)</i>

Matnlardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi har bir uslubni o'quvchiga tushuntirishda integrativ yondashadi. O'quvchilar qo'lidagi matnlar jamlanmasini o'qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradi va bu uning ko'z o'ngida qolishiga yordam beradi.

O'qituvchi tushuntirishni boshlaydi:

- Birinchi matn badiiy asardan olingan bo'lib, u so'zlashuv uslubiga xosligini va shu uslubga xos belgilarni ko'rsatib o'tadi.



- *Ikkinchi matnda badiiy uslub ishtirok etganini va bu uslubni yoritish uchun badiiy asarga yuzlanganini aytadi.*
- *Uchinchi matnda publisistik uslubning yozma shaklini aytib, bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir etish bo'lib, soddalik, tushunarlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish zarurligi aytiladi.*
- *To'rtinchi matn rasmiy uslubida yozilganligini tushuntirish bilan bir qatorda rasmiy uslub turlariga yana bir marotaba to'xtab, quyida berilgan matn rasmiy uslubning sof qonunchilik uslubida yozilganligini sharhlab o'tadi.*
- *Beshinchi matnda o'qituvchi ilmiy uslubni o'rganish uchun fizika faniga murojaat etganligini aytib o'tadi va ilmiy uslubni yana bir bor takrorlab o'tadi. O'qituvchini bu usul, yani uslubiyat mavzusini boshqa predmetlarga murojaat etish yo'li bilan tushuntirishi o'quvchilarning yangi mavzuni tez va oson o'rganishini ta'minlaydi.*

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida berilgan hikoya, she'r, maqol, hikmatli so'zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lib, til bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

References:

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi.
2. Cenral Asian Academic Journal Of Scientific Research ISSN 2181-2489. VOLUME 2. 2022-yil.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. -T.: „O'qituvchi», 1992.
4. Cyberleninka.ru